



O'ZBEK ADABIYOTINING YORQIN VAKILI – ABDULLA ORIPOV

¹Joldasbayeva Gulayim Kenesbay qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti 1-bosqich talabasi,

²Axmedova Sarvinoz

Alimardon qizi Qoraqalpoq davlat universiteti 2-bosqich talabasi.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7794633>

ARTICLE INFO

Received: 23th March 2023

Accepted: 30th March 2023

Online: 31th March 2023

KEY WORDS

Adabiyot, nazm, vatan, ijod, siymo.

ABSTRACT

Ushbu maqolada XX asr o'zbek adabiyoti va she'riyatining taniqli vakili va jamoat arbobi Abdulla Oripov hayot yo'li va ijodkorning vatan, yurt tushunchalari singdirilgan she'rlari tahlil qilinib, ularning bugungi kundagi tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi.

Davlatimiz madhiyasini eshitmagan kishi bo'lmasa kerak, albatda. Xalqaro musobaqalarda sportchilarimiz g'alabaga erishganida yoki bayrog'imiz balandga ko'tarilganda madhiyamiz yangraganini g'urur va iftixor bilan kuzatgansiz. Faqat tantanali marosimlarda emas, balki radio televideniyelar ham har bir kunimizni madhiya bilan boshlab, u bilan tugatadi. Chunki, u - bizning mustaqilligimiz, davlatimiz ramzidir. Mana shu madhiyaning muallifini bilasizmi? Uni taniqli shoirimiz Abdulla Oripov yozgan.

Abdulla Oripov O'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri.

Shoir 1941-yil 21-martda Qashqadaryo viloyati Koson tumanining Neko'z qishlog'ida tavallud topgan. U bolaligidanoq qandaydir xayolchan, o'ychil, kitobga haddan tashqari ko'ngil qo'yan edi. Shoir so'zlarni uyqash qilib aytib yurishni yoqtirardi. Buni esa shunday eslaydi: "...birinchi she'rlar yoza boshlaganimga nima turki bo'lganini aniq bilmayman. Har holda so'zlarni qofiyalashga ishqiboz bo'lib qolganim esimda. Balki zerikkanimdan, balki zavqim toshib, nimadir yozgim kelaverardi. Fikr esa yo'q. Yozmaslikning ham iloji yo'q" [3; 1]

Abdulla Oripov 1958-yili o'rta maktabni tugatib, Toshkentga keladi va hozirgi O'zbekiston Milliy universitetining filologiya fakultetiga o'qishga kiradi. 1963-yilda ushbu universitetni tugatib, nashriyotda ishlaydi. 1965-yili birinchi kitobi "Mitti yulduz" nomi bilan bosilib chiqadi. Bu mitti kitobi esa adabiyotimizga katta iste'dod egasi kirib kelayotganligini ma'lum qildi. Yosh shoir she'rlarida boshqalarnikiga o'xshamas dard-u ohanglar, o'xshatish manzaralar, vatanga, onaga bo'lgan mehr-muhabbatlari aks etgan bir-biridan go'zal she'rlari barchaning diqqatini o'ziga jalg etdi. O'z davrining mashhur vakillaridan biri G'afur G'ulom ham unga e'tibor bergen va ijodiga yuksak baho bergen. Shoir buni "Kecha televizorda she'r o'qigan bola senmisan. Yozaver, o'g'lim" deganlarini hech unutmayman, deb eslaydi. [3; 9]

Birinchi marta respublika matbuotida "Qushcha" deb atalgan she'ri chiqqan paytda A. Oripov talaba edi. Undan keyin "Ko'zlarim yo'lingda" (1967), "Onajon" (1969), "Ruhim" (1971), "O'zbekiston", "Qasida" (1972), "Xotiro" (1974), "Yurtim shamoli" (1974), "Jannatga yo'l" (1978), "Hayrat" (1979), "Hakim va ajal" (1980), "Najot qal'asi" (1981), "Yillar armoni"



(1983), "Haj daftari" (1992), "Saylanma" (1996), "Sohibqiron" dramasi (1996), to'rt jildlik "Tanlangan asarlar" (2000 — 2001) singari qator kitoblari bosilib chiqdi.

Abdulla Oripov 1983- yilda ikki karra taqdirlandi: dastlab Hamza nomidagi davlat mukofoti, biroz muddat o'tgach "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni berildi. 1994- yilda Alisher Navoiy nomidagi respublika Davlat mukofotiga loyiq ko'rildi, 1998- yilda esa shoir "O'zbekiston qahramoni" unvoni bilan taqdirlandi. "O'zbekiston" "Men nechun sevaman O'zbekistonni" "Ona diyor", "O'zbekiston qomusi" kabi she'rlari shoirning Vatanga bo'lган muhabbat jo'sh urgan she'rlari hisoblanadi. Ularning orasida "O'zbekiston" she'ri hammamizga ma'lum va mashhur she'rlaridan biridir. Ushbu she'rda o'zbek xalqining buyuk tarixini, o'zligini, milliy g'ururini o'zida mujassam etgan yuksak ijod namunalaridandir. She'rning ilk satridanoq Vatanga, o'zbek xalqiga, uning buyuk tarixiga bo'lган muhabbat, hurmat-ehtirom, g'urur va iftixon tuyg'ulari yaqqol sezilib turadi.

She'rni o'qir ekanmiz, shoirning Vatanga bo'lган chinakam muhabbatini ko'rishimiz mumkin. O'zbek xalqi qaddini yana bir pog'ona ko'targan, mashhur qilgan bu she'r barcha o'zbekning or-nomusiga aylandi. U Vatanni dunyoning eng go'zal maskanlariga qiyoslaydi. Yo'q ,unday joy yo'q. Bu yurt - beqiyos. Bitilmagan dostondir. Uning ta'rifini yozmoqlikka qalam ojiz...

Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo.
Shoirlar bor, o'z yurtin butun
Olam aro atagan tanho.
Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,
Qanotida kumush diyori.
Bir o'lka bor dunyoda, biroq
Bitilmagan dostondir bori:
Faqat ojiz qalamim manim,
O'zbekiston – Vatanim manim!

[1;178]

She'rni tahlil qilishni davom etar ekanmiz, shoir bu bandida tarixga yuzlanadi. Tariximizda Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Alisher Navoiy va hokazo buyuk shoirlarimiz adabiyotimizga o'zining yetuk hissalarini qo'shganligi bois ularni keltirib ham bo'lmasdi..

Yurmasman hech behishtni izlab,
Topolmasam, chekmasman alam.
O'tirmasman ertaklar so'zlab,
«Musallo», – deb yo'nmasman qalam.
Ko'klamingdan olib sururni,
Dovruq soldi ustoz Olimjon.
G'afur G'ulom tuygan g'ururni
Qilmoq mumkin dunyoga doston.
Olis tarix – qadamim manim,
O'zbekiston – Vatanim manim! [1;178]



Ha, Vatanimiz betakror va so'lim go'sha.Bu yurt hech bir joyga teng kelmas. Bu haqida baxt kuychisi Hamid Olimjon bu yurtning ko'klamini qalamga olgan edi, dovrug'i olamga yoyildi.Hamid Olimjon ham bu yurtni madh etgan,kuylagan va unga atab she'rlar yozgan.Uning yurti, shunchalar go'zal , shunchalar sehrli.Shoir tarixga ham bir nazar tashlar ekan, olis tarix qa'rida buyuk ajdodlarimizni ko'radi va ularni ham eslab o'tadi.

Ko'p jahongir ko'rgan bu dunyo
Hammasiga guvoh – yer osti.
Lekin, do'stlar, she'r ahli aro
Jahongiri kam bo'lar, rosti.
Besh asrkim, nazmiy saroyni
Titratadi zanjirband bir sher.
Temur tig'i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher.
Dunyo bo'ldi chamanim manim,
O'zbekiston – Vatanim manim! [1;179]

Shoir yuqorida keltirilgan bandda buyuk mutafakkir A.Navoiy bobomiz nomini keltirar ekan, Navoiy ham o'zbek tilining shakllanishiga sabab bo'lgan o'zbek adabiyotining eng yirik namondoyalaridan biri. Navoiy asarlarida jamoat ruhi, davrga xos muammolar, eng nafis ijtimoiy-falsafiy va ilmiy asarlarni yaratganligi uchun mana shunday she'r qatorlarida uning nomi abadiy yangraydi. Bu ko'hna dunyo juda ko'p jahongirlarni ko'rdi, lekin so'z mulkining jahongirlari kam edi. Alisher Navoiy - dunyoni o'z qalami bilan zabit etgan va dunyoni chamanzorga aylantirgan siymo. Bular bilan faxrlanmaslik mumkinmi?!

Bu buyuk shaxsiyatlarning yaratuvchisi, albatda, xalqdir. Bunday buyuk farzandlarni jahonga yetkazib bergen, ularning shon-sharafini asrlardan asrlarga olib o'tgan mana shu xalqdir.

E'tibor bergen bo'lsangiz, she'rning har bir bandi "O'zbekiston - Vatanim manim" degan g'ururbaxsh satr bilan yakunlanadi.Shuni ham aytib o'tish kerakki, bu fikrlar 1968-yilda aytilgan edi. U paytlari esa "SSSR- bizning Vatanimiz" degan soxta shior qanchalab insonning ongiga sindirilgan edi. Abdulla Oripov shunday bir sharoitda "O'zbekiston - Vatanim manim" deb baralla aytta oldi. Bu esa katta jasoratdir.

Bu she'r yana bir mashhur shoirimiz Erkin Vohidovning «O'zbegim» qasidasi bilan deyarli bir vaqtda yozildi va ikkala asar xalqimizning o'zligini anglashida sezilarli rol o'ynadi.

Shoirning boshqa she'rlarida ham beedad samimiyat, tuyg'ular chinligi kishini o'ziga jalb qiladi. Shoir she'riyat kayfiyat va hissiyotga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Xulosa o'rnida aytish kerakki, qalbida Vatanga bo'lgan muhabbat cheksiz bo'lgan insonning farovon hayotini har narsadan ustun ko'radigan, muhabbat borasida dengizday qaysar, ummondek cheksiz, tog'lardek ulug` bo'lgan insonni o'z umrining qahramoni deyish mumkin. Abdulla Oripov ham ana shunday insonlardan desak, yanglishmagan bo'lamiz. Mustaqillikka erishib o'zligini, o'zbegini yaratayotgan xalqimiz bunday insonlarni ulug'lashi tabiiy. Abdulla Oripovning hayot yo'li, yaratayotgan asarlari va ulardag'i yetakchi g'oyalar harbir inson qalbida ezgu fikrlarga yondosh tarzda yashashiga, albatda, ishonamiz.O'zbek xalqni uchun shoir ham, she'rlari ham hamisha ardoqlidir!



References:

1. Abdulla Oripov."Tanlangan asarlar".Birinchi jild.She'rlar va dostonlar. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent 2000.
2. Abdulla Oripov."O'zbekiston qasida"."Yosh gvardiya" nashriyoti. Toshkent 1972-yil
3. .Sharq yulduzi» jurnali, 2018 yil, 3-4-5-sonlar